

Date: 9th August-2026

TA'LIM TIZIMINI SAMARALI BOSHQARISHDA IJTIMOIIY-DEMOGRAFIK OMILLAR

Mirzadjanov Azim Hakimjanovich

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektori, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim tizimini samarali boshqarishda ijtimoiy-demografik omillarning o'рни, ularning ta'lim sifati, boshqaruv qarorlari va ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligiga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Aholi soni va tarkibi, yosh-demografik holat, urbanizatsiya, migratsiya, ijtimoiy tengsizlik, bandlik darajasi, otalarning ta'lim darajasi, hududiy rivojlanish kabi omillarning ta'lim tizimi boshqaruvida strategik rejalashtirish, resurslarni taqsimlash, pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojni prognozlash hamda ta'lim sifatini ta'minlash jarayonlaridagi ahamiyati asoslangan. Shuningdek, ma'lumotlarga asoslangan (data-driven) boshqaruv, raqamli monitoring va demografik prognozlardan foydalanish orqali ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari taklif etilgan. Tadqiqot natijalari ta'lim siyosatini shakllantirish, hududiy ta'lim infratuzilmasini takomillashtirish va inson kapitali rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, ta'lim menejmenti, ijtimoiy-demografik omillar, ta'lim sifatini boshqarish, demografik prognoz, strategik boshqaruv, inson kapitali, hududiy rivojlanish, raqamli monitoring, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv (Data-Driven Management), ta'lim siyosati, resurslarni rejalashtirish.

O'zbekistonda aholi sonining barqaror o'sishi, tug'ilish darajasining nisbatan yuqoriligi va aholi tarkibida bolalar hamda yoshlar ulushining kattaligi ta'lim tizimini strategik boshqarishda ijtimoiy-demografik omillarni hisobga olishni ob'ektiv zaruratga aylantirmoqda. Demografik jarayonlarning ta'lim tizimiga ta'siri darhol emas, balki muayyan vaqt oralig'ida namoyon bo'ladi: tug'ilgan bolalar 3–6 yildan keyin maktabgacha ta'limga, taxminan 7 yildan keyin umumta'lim maktablariga, 18–24 yildan keyin esa professional va oliy ta'lim tizimiga kirib keladi. Shu sababli ta'lim siyosati joriy kontingent ko'rsatkichlariga emas, kamida 5–10 yillik demografik prognozlarga asoslanishi lozim.

O'zbekiston aholisi so'nggi yillarda barqaror yuqori sur'atlarda ko'payib bormoqda. 2025 yil 1 yanvar holatiga doimiy aholi soni 37,5 million nafardan oshgan bo'lsa, 2026 yil 1 yanvar holatiga 38,2 million nafarga yetgan. 2025 yil davomida aholi har oyda o'rtacha 57,1 ming, har kuni qariyb 1,9 ming nafarga ko'paygan. Bu holat aholi o'sish sur'ati pasayib borayotgan ayrim davlatlardan farqli ravishda, O'zbekistonda demografik o'sish uzoq muddat davom etishini ko'rsatadi.

Date: 9th August-2026



Aholi sonining o'sishi ta'lim xizmatlariga bo'lgan umumiy talabni oshiradi. Biroq mazkur ta'sir mamlakat hududlarida bir xil namoyon bo'lmaydi. Tug'ilish yuqori bo'lgan, ichki migratsiya kuchli kechayotgan va yangi turar joy massivlari qurilayotgan hududlarda maktablar va maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bosim yuqori bo'ladi. Aholi zichligi past hududlarda esa kichik kontingentli maktablarni saqlash, transport xizmatlarini tashkil etish va masofaviy ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuning uchun aholi sonining umumrespublika ko'rsatkichidan tashqari, uning yosh-jins tarkibi, shahar va qishloq aholisi nisbati, ichki va tashqi migratsiyasi, hududiy joylashuvi hamda yangi aholi punktlarining shakllanish dinamikasi ta'limni boshqarishda alohida hisobga olinishi zarur.

Tug'ilish ko'rsatkichi ta'lim tizimiga kelgusi talabni prognozlashda eng muhim demografik indikator hisoblanadi. O'zbekistonda 2021 yilda 905,2 ming, 2022 yilda 932,2 ming, 2023 yilda 962 ming va 2024 yilda 926,4 ming nafar tirik tug'ilish qayd etilgan. 2025 yilda tug'ilishlar soni 879,6 ming nafarni tashkil etib, so'nggi ikki yilda muayyan pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, uning mutlaq miqdori yuqori darajada saqlanib qolgan.

Tug'ilish dinamikasidagi mazkur o'zgarishlar ta'lim tizimiga to'liqsimon ta'sir ko'rsatadi. Masalan, 2021–2024 yillarda tug'ilgan bolalar 2024–2030 yillarda maktabgacha ta'lim muassasalariga, 2028–2032 yillarda esa umumta'lim maktablarining birinchi sinflariga qabul qilinadi. Demak, hozirgi tug'ilish ko'rsatkichlari kelgusi yillarda yangi guruhlar, sinflar, o'quv binolari va pedagog kadrlarga ehtiyoj yuqori bo'lib qolishini anglatadi.


Tug'ilish ko'rsatkichlaridan ta'lim siyosatida foydalanish uchun har bir tuman va mahalla kesimida bolalarning yillik tug'ilish reestri shakllantirilishi, mazkur ma'lumotlar maktabgacha va maktab ta'limi axborot tizimlari bilan integratsiya qilinishi maqsadga muvofiq. Bu orqali kelgusi qabul kontingenti, o'quv o'rinlari va pedagoglarga ehtiyojni oldindan aniqlash mumkin bo'ladi.

O'zbekiston aholisi tarkibida bolalar va yoshlar ulushining yuqoriligi umumiy o'rta ta'lim tizimiga doimiy demografik bosimni shakllantirmoqda. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, maktab yoshidagi aholi soni 6,6 million nafar atrofida bo'lib, uning 3,2 millioni qizlar va 3,4 millioni o'g'il bolalar hissasiga to'g'ri keladi.

Uzoq muddatli prognozlarda 2035 yilga borib 7–17 yoshli bolalar soni 9,7 million nafarga yetishi mumkinligi qayd etilgan. Bu esa 2022/2023 o'quv yiliga nisbatan qariyb 3 millionga yaqin qo'shimcha o'quvchi kontingenti shakllanishi ehtimolini anglatadi.

Date: 9th August-2026

Toifa	Soni
O'g'il bolalar	3,4
Qizlar	3,2




Maktab yoshidagi aholining gender tarkibi

(Маълумотлар миллион нафар ва фоиз ҳисобида берилган)

Diagramma ma'lumotlariga ko'ra, maktab yoshidagi 6,6 million nafar aholining 51,5 foizini o'g'il bolalar, 48,5 foizini qizlar tashkil etadi. 2035 yilga borib 7–17 yoshli bolalar soni 9,7 million nafarga yetishi, ya'ni hozirgi ko'rsatkichga nisbatan 3,1 million nafarga oshishi prognoz qilinmoqda.

Joriy holat va 2035 yil uchun prognoz ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili.



Maktab yoshidagi aholi sonining o'sish prognozi, mln. kishi

Maktab yoshidagi aholining ko'payishi faqat yangi maktablar qurish masalasini emas, balki quyidagi tizimli vazifalarni ham kun tartibiga qo'yadi:

sinflarning me'yoriy to'ldirilishini ta'minlash;

ikki va uch smenali ta'limni qisqartirish;

darsliklar va elektron ta'lim resurslariga talabni prognozlash;

Date: 9th August-2026

inklyuziv ta'lim xizmatlarini kengaytirish;

maktab transporti va xavfsiz yo'l infratuzilmasini rivojlantirish;

bolalarning hududiy taqsimotiga muvofiq pedagog kadrlarni joylashtirish.

Shu jihatdan maktab yoshidagi aholi soni ta'lim infratuzilmasi, byudjet va pedagog kadrlar siyosati o'rtasidagi asosiy bog'lovchi ko'rsatkich sifatida baholanishi lozim.

Maktabgacha ta'lim demografik o'sish ta'siri birinchi bo'lib seziladigan ta'lim bosqichidir. Milliy statistika qo'mitasining 2025 yilda e'lon qilingan ma'lumotiga ko'ra, 2024 yil yakunida respublikada 38 058 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyat yuritgan. Bu 2023 yilga nisbatan 2 085 taga yoki 5,8 foizga ko'pdir. Ularning 28 729 tasini oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tashkil etgan.

Mazkur tashkilotlarda tarbiyalanayotgan bolalar soni 2,35 million nafarga etgan va bir yilda 180,5 ming nafarga yoki 8,3 foizga ko'paygan. 3–6 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 2020 yildagi 50,9 foizdan 2024 yilda 72,4 foizga etgan.

Biroq hududlar o'rtasida qamrov bo'yicha sezilarli tafovut saqlanib qolmoqda. Masalan, 2024 yilda Buxoro viloyatida qamrov 81,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, Qashqadaryo viloyatida 59,3 foiz bo'lgan. Bu maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonining ko'payishi umumiy ehtiyojni to'liq qondirish uchun etarli emasligini, resurslarni hududiy demografik sharoitlar asosida taqsimlash zarurligini ko'rsatadi.

Maktabgacha ta'limda miqdoriy kengayish bilan birga sifat masalasi ham ustuvor bo'lishi kerak. 2024 yil oxirida maktabgacha ta'lim tizimida 174,6 ming nafar pedagog xodim faoliyat yuritgan. Bu ko'rsatkich 2023 yilga nisbatan 7 ming nafarga oshgan bo'lsa-da, pedagoglarning malakasi, bolalar va tarbiyachilar nisbati, ta'lim dasturlari sifati hamda moddiy-texnik sharoitlar hududlar kesimida bir xil emas.

2024/2025 o'quv yili boshida O'zbekistonda 10 943 ta umumta'lim maktabi faoliyat ko'rsatgan va ularda qariyb 6,78 million nafar o'quvchi tahsil olgan. Bu ko'rsatkichlar maktablar soni o'sganiga qaramasdan, o'quvchi kontingenti ham jadal ko'payib borayotganini ko'rsatadi.

Hisob-kitoblarga ko'ra, bir umumta'lim maktabiga o'rtacha 620 nafarga yaqin o'quvchi to'g'ri keladi. Biroq ushbu o'rtacha ko'rsatkich hududlar o'rtasidagi tafovutni to'liq ochib bermaydi. Aholi zich, tug'ilish yuqori va ichki migrasiya kuchli bo'lgan hududlarda bir maktabga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni ancha yuqori bo'lishi mumkin.

Shu sababli maktablar tarmog'ini rejalashtirishda faqat maktablar soni emas, balki quyidagi ko'rsatkichlar hisobga olinishi lozim:

maktabning loyiha quvvati;

amaldagi o'quvchilar soni;

smenalar soni;

sinflarning o'rtacha to'ldirilishi;

maktab binosining texnik holati;

kelgusi 5–7 yildagi birinchi sinf qabul prognozi;

yangi turar joy massivlarining rivojlanishi;

maktabgacha ta'lim muassasalarini tugatayotgan bolalar soni.



Date: 9th August-2026

Ushbu ko'rsatkichlar asosida har bir tuman va mikrohudud uchun maktablarning "talab-taklif xaritasi"ni ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

O'quvchilar kontingentining o'sishi pedagog kadrlarga bo'lgan talabni ham oshiradi. 2022/2023 o'quv yilida umumta'lim maktablarida 540,7 ming nafar pedagog faoliyat yuritgan va har bir o'qituvchiga o'rtacha 11,9 nafar o'quvchi to'g'ri kelgan.

Biroq respublika bo'yicha o'rtacha nisbat pedagoglarga ehtiyoj muammosini to'liq aks ettirmaydi. Ayrim hududlarda pedagoglar soni etarli bo'lsa-da, informatika va axborot texnologiyalari, matematika, fizika, kimyo, biologiya, chet tillari va rus tilida ta'lim beriladigan sinflar uchun malakali o'qituvchilar tanqisligi saqlanib qolishi mumkin.

Pedagog kadrlarga ehtiyojni prognozlashda quyidagi omillar birgalikda hisobga olinishi zarur:

- o'quvchilar va sinflar sonining o'sishi;
- fanlar bo'yicha o'quv soatlari;
- pedagoglarning yosh tarkibi va pensiyaga chiqish dinamikasi;
- kadrlar qo'nimsizligi;
- qishloq va chekka hududlardagi vakansiyalar;
- yangi fanlar va raqamli ta'lim yo'nalishlarining joriy etilishi;
- inklyuziv ta'lim mutaxassislariga ehtiyoj;
- maktabgacha ta'limdan umumiy o'rta ta'limga o'tayotgan kontingent.

Shu asosda har bir hudud uchun "pedagog kadrlar balansi" ishlab chiqilishi, pedagogika oliy ta'lim tashkilotlariga qabul parametrlari va davlat grantlari mazkur balansga muvofiq belgilanishi lozim.

Demografik prognozlar ta'lim tizimini reaktiv emas, balki proaktiv boshqarish imkonini beradi. Reaktiv boshqaruvda muammo paydo bo'lganidan keyin maktab qurish, pedagog jalb qilish yoki byudjet ajratish amalga oshiriladi. Proaktiv boshqaruvda esa tug'ilish, aholi o'sishi va migrasiya ko'rsatkichlari asosida muammo 5–10 yil oldin aniqlanib, tegishli resurslar tayyorlanadi.

UN Population Prospects metodologiyasi aholi rivojlanishining bazaviy, yuqori va past ssenariylarini tuzish imkonini beradi. Ta'lim siyosatida ham shunday ssenariyli yondashuv qo'llanilishi maqsadga muvofiq:

Bazaviy ssenariyda aholi va tug'ilish ko'rsatkichlari amaldagi sur'atda davom etadi. Ushbu holatda maktablar va pedagoglar soni rejali ravishda oshiriladi.

Yuqori o'sish ssenariysida tug'ilish, ichki migrasiya va urbanizasiya tezlashadi. Bunda yangi maktablar, qo'shimcha binolar, pedagoglar va byudjet resurslariga ehtiyoj keskin ortadi.

Past o'sish ssenariysida tug'ilish sur'ati kamayadi. Bunday sharoitda yangi ob'ektlar qurishdan ko'ra, mavjud maktablarni modernizasiya qilish, ta'lim sifatini oshirish va resurslarni optimallashtirish ustuvor bo'ladi.

Demografik prognozlar quyidagi ta'lim siyosatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi:

Infratuzilma siyosati – maktablar va bog'chalarni qaerda, qachon va qanday quvvatda qurishni belgilaydi.

Date: 9th August-2026

Kadrlar siyosati – pedagoglarni tayyorlash, qayta tayyorlash va hududlarga taqsimlash parametrlarini asoslaydi.

Moliyalashtirish siyosati – byudjet mablag‘larini hududlarning demografik bosimi va ehtiyojlari bo‘yicha taqsimlashga xizmat qiladi.

Qabul siyosati – maktabgacha, umumiy o‘rta, professional va oliy ta‘limga qabul hajmlarini prognozlash imkonini beradi.

Ta‘lim sifati siyosati – kontingent o‘shishi sharoitida sinflarning ortiqcha to‘lib ketishi va pedagoglar yuklamasining oshishi kabi sifat xavflarini oldindan aniqlaydi.

Hududiy tenglik siyosati – ta‘lim xizmatlarining shahar va qishloq, markaziy va chekka hududlar o‘rtasida adolatli taqsimlanishini ta‘minlaydi.

O‘zbekistondagi demografik jarayonlar ta‘lim tizimi uchun ham katta imkoniyat, ham jiddiy boshqaruv mas‘uliyatini yuzaga keltirmoqda. Aholi va yoshlar sonining o‘shishi mamlakatning inson kapitali salohiyatini oshiradi. Biroq ushbu demografik imkoniyatni iqtisodiy va ijtimoiy natijaga aylantirish uchun maktabgacha va umumiy o‘rta ta‘lim infratuzilmasini oldindan tayyorlash, malakali pedagoglar bilan ta‘minlash, resurslarni manzilli taqsimlash va ta‘lim sifatini nazorat qilish zarur.

Shu bois O‘zbekiston ta‘lim siyosatida quyidagi boshqaruv zanjirini joriy etish maqsadga muvofiq:

tug‘ilish va aholi ma‘lumotlari → yosh guruhlari prognozi → ta‘lim xizmatlariga talab → infratuzilma va pedagoglar ehtiyoji → moliyalashtirish → KPI monitoringi → strategik qaror → qayta prognozlash.

Ushbu yondashuv demografik statistikani oddiy hisobot ma‘lumotidan ta‘lim tizimini strategik boshqarishning samarali vositasiga aylantiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.04.2019 yildagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 yildagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni.
4. Sh.Po‘latov. Ta‘lim menejmenti, yoxud ta‘lim muassasasini ilmiy-metodik boshqarish strategiyasi. O‘quv qo‘llanma. T.: “Yosh kuch”, 2019, 592 bet
5. R.X.Jo‘raev, S.T.Turg‘unov. Ta‘lim menejmenti. Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari direktorlari uchun qo‘llanma. T.: “Voriz-Nashiriyot”-2006, 263 bet.
6. A.Radjev, F.Karimov, A.Ibragimov. TALIS-2018 Xalqaro tadqiqotlari talablari asosida o‘tkazilgan so‘rovnoma va tadqiqot hisobotining ma‘lumotlar to‘plami. 2-qism. Toshkent-2022. 119 bet.

